

“ALPOMISH” DOSTONIDA BADIY SAN’ATLAR**G‘ulomova Begoyim Bektosh qizi***SamDU Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti**105-guruh talabasi**Ilmiy rahbar: U.Sanaqulov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq epik merosining durdona namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostonidagi badiiy san’atlar tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan tashbeh, mubolag‘a, epitet, takror, timsol, antiteza, litota, parallelizm kabi badiiy ifoda vositalari misollar asosida ko‘rsatilib, ularning obraz yaratishdagi, voqeani ta’sirli yetkazishdagi o‘rni yoritiladi. Maqola orqali dostonning nafaqat syujet yuki, balki estetik go‘zalligini ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Alpomish, doston, badiiy san’at, tashbeh, mubolag‘a, epitet, timsol, xalq og‘zaki ijodi, estetik tasvir, epik obraz, ifoda vositalari.*

ARTISTIC DEVICES IN THE EPIC “ALPOMISH”

Abstract. *This article analyzes the artistic devices used in “Alpomish,” one of the masterpieces of Uzbek folk epic heritage. It examines examples of simile, hyperbole, epithet, repetition, symbolism, antithesis, litotes, and parallelism in the epic, highlighting their role in creating vivid imagery and enhancing the emotional impact of the narrative. The article emphasizes not only the richness of the plot but also the aesthetic beauty of the epic.*

Keywords: *Alpomish, epic, artistic device, simile, hyperbole, epithet, symbolism, folk oral tradition, aesthetic imagery, epic character, expressive means.*

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ СРЕДСТВА В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ»

Аннотация. *В данной статье анализируются художественные средства, использованные в эпосе «Алпомиш», который является выдающимся образцом узбекского народного эпического наследия. На основе примеров рассматриваются такие выразительные средства, как сравнение, гипербола, эпитет, повтор, символ, антитеза, литота и параллелизм. Показана их роль в создании художественных образов и эмоционально выразительном повествовании. Через анализ этих средств раскрывается не только сюжетное содержание эпоса, но и его эстетическая красота.*

Ключевые слова: *Алпомиш, эпос, художественные средства, сравнение, гипербола, эпитет, символ, устное народное творчество, эстетическое изображение, эпический образ, выразительные средства.*

Kirish:

“Alpomish” – qadimiy dostonlardan biridir. U qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi sevgi va sadoqat, oila mustahkamligini kuylovchi ulkan eposdir. Unda bir oila taqdiri misolida vaziyat taqozosi bilan bo‘linib ketgan qadimiy bir o‘zbek urug‘ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g‘oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati va istiqboli, el-yurt farovonligi, oila baxti va Vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Qahramonlik dostonlarimiz asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma’naviy quvvat berib kelayotir. Shuning uchun ular ma’naviy qadriyatlarimizning alohida tarkibiy qismi sanaladi. Marosimlarga aloqador urf-odat va an‘analarning bevosita dostonlarda berilishi masalasiga, ikkinchidan, doston kuylashning marosimlar bilan bog‘liq tarzda davom etayotgani masalasiga ahamiyat berish kerak. Dostonda Alpomishning o‘z yaqinlari tinchligi, baxt -u saodati yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari madh etiladi. Shu bilan birga, ushbu dostonda jamyat va inson hayoti masalalari o‘ziga xos reallikda- qahramonlik va go‘zallik haqidagi xalq g‘oyalari doirasida kuylanadi.

“Alpomish” dostoni badiiy tasvir vositalariga boy asardir. Unda metafora, metonimiya, o‘xshatish, mubolag‘a kabi tasvir vositalari bor. Bunday badiiy tasvir vositalari doston tilining jozibali bo‘lishini taminlaydi.

Masalan:

Alpomishning yoshligi bilan bog‘liq mana bu lavhani olaylik: “Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul 14 botmon yoyni qo‘liga ushlab ko‘tarib tortadi, tortib, qo‘yib yuboradi. Yoyni o‘qi yashinday bo‘lib ketdi, Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi”. 7 yoshli Hakimbekning turli metal ma’danlardan quyilgan birinchdan bo‘lgan shu qadar og‘ir yoyni ko‘taraolishi, unga mos o‘q joylashi va o‘qni otib, katta tog‘ning cho‘qqisini uchirib yuborishi tinglovchi mazkur voqeaning sodir bo‘lganiga mutlaqo shubha bildirmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini ilohiy kuchlar bashorat qilgandilar. Shohimardon pirning o‘zi qalandar qiyofasida kelib, Boybo‘rining yangi tug‘ilgan o‘g‘liga Hakimbek deb nom qo‘ygandi. Mubolag‘ali o‘rinlar Hakimbek, to‘qson alplarning tog‘dek gavdalari, Barchin, Qaldirg‘ochning go‘zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, otlarning poygasida juda o‘rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o‘xshatishlarni ham uchratamiz:

1. Tashbeh (o‘xshatish)

Tashbeh dostonida eng ko‘p uchraydigan san’atlardan biridir. Bu san’at yordamida qahramonlar kuchi, tezligi, go‘zalligi yoki holati boshqa narsa yoki hodisaga o‘xshatiladi. Misol: “Alpomish otildi yashin yanglig‘, oldiga hech kim chiqqa olmadi.” – bu yerda Alpomishning tezligi chaqmoqqa o‘xshatiladi.

2. Xalq dostonlaridagi nasriy tasvirlar ham juda o‘ziga xos bo‘lib, ko‘pincha, **saj**‘ yo‘lida, ya’ni qofiyali sochma ko‘rinishida keladi. Nasriy tasvirlarning bu tarzda berilishi xalq dostonlarining ifoda darajasini yuksaltirib, badiiy ta’sirchanligini orttiradi.

“Ko‘zda yosh, ko‘ngilda g‘am, yurakda dard, tilda fig‘on”

Bu yerda so‘zlar tuzilishi va ohangi saj‘ san’atini ifodalaydi.

3. Xalq dostonlarining deyarli hammasida uchraydigan ifoda va tasvirlar folklorshunoslikda **“Epik qoliplar”** deyiladi. Ular xalq dostonlarida takrorlanib turadigan holatlar tasvirida qo‘llaniladi. Dostonlarning boshlanish va tugallanishi, personajlarning ko‘rinishi, o‘zaro munosabatlari, tulporlarga berilgan ta’riflar, safar yoki jang tasvirida epik qoliplardan foydalaniladi.

Misol uchun:

“Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,

Boshing eson, davlatingni kam dema” yoki: “Kokillarim
eshilgandir tol-tol, Har toliga bersa yetmas dunyo mol”.

4. Mubolag‘a (bo‘rttirish)

Voqeani kuchaytirish, qahramon obrazini yuksaltirish maqsadida mubolag‘a ishlatiladi. Misol: “Alpomish bir tepishda toqqa teng dushmani yiqitdi.” – bu yerda Alpomishning g‘ayritabiyy kuchi bo‘rttirib ko‘rsatilgan.

5. Takror (taf‘ila)

Dostonda so‘z va iboralarning takrori orqali obraz kuchaytiriladi, tinglovchiga ta’siri oshiriladi. Misol:

“Keldi, keldi Alpomish,

Elga doston Alpomish...”

6. Epitet (sifatlash)

Qahramon yoki buyumga berilgan ma’naviy yoki tashqi sifatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Misollar: Bahodir Alpomish, sadoqatli Barchinoy, tog‘dek yigit, oltin sochli qiz.

7. Ramziy obrazlar (timsol)

Dostonda ayrim qahramonlar yoki hodisalar ramziy ma’noga ega. Misol: Boysari – fidokorlik va sadoqat ramzi, Alpomish – adolat va mardlik timsoli.

8. Alegoriya (kinoya, timsolli bayon)

Biror voqea yoki obraz orqali boshqacha, chuqur ma’no ifodalanadi. Misol: Alpomishning uzoq safarga chiqishi – hayot yo‘lining og‘ir sinovlarini bildiradi.

9. Litota (kichraytirib ko‘rsatish)

Ba’zida mubolag‘aning teskarisi – litota san’ati ham ishlatiladi. Misol: “Yelmayin yurdi” – bu ibora aslida qahramonning jiddiy va og‘ir vaziyatda ekanini bildiradi.

10. Antiteza (qarama-qarshilik)

Turli obrazlar yoki holatlarni qarama-qarshi qo‘yib, ma’no va ta’sir kuchi oshiriladi. Misol: Yovuz Qalmoqxon – adolatli Alpomish, Barchinoy – Gulsifat.

11. Dialog va monologlar orqali badiiylilik

Qahramonlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatlar (dialoglar) va ularning ichki kechinmalari (monologlar) dostonning badiiyligini oshiradi. Misol: Barchinoyning Alpomishni kutib, o‘z holatini so‘zlab yig‘lashi – monolog orqali ichki kechinma beriladi.

12. Parallellik (qiyosiy tasvir)

Biror voqea yoki obraz boshqa shunga o‘xshash obraz bilan qiyoslanadi. Misol: Alpomish bilan boshqa yigitlarning qiyosi – Alpomishning ustun jihatlarini ko‘rsatadi. Shuningdek,

“Rozi bo‘ling, qarindoshlar,

Yana ko‘ruv bormi yoki yo‘q.”

“Rozi bo‘ling, qarindoshlar,

Boshqa joyda o‘lsam g‘arib.”

Bu satrlar mazmuniy va ritmik parallelizm yaratadi.

13. Simvol (ramz)

Ma’lum bir narsa orqali ko‘p ma’noli tushuncha beriladi. Misol: Alpomishning kamoni – kuch va adolat ramzi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostoni nafaqat xalqimizning qahramonlik ruhi va madaniy merosini aks ettiradi, balki uning badiiy san’atlar orqali boy she’riy va estetik mahoratini ham namoyon etadi. Ushbu dostonni o‘rganish nafaqat o‘tmishni anglash, balki xalq ijodining noyob namunalari bilan tanishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alpomish” dostoni. Tahrir qilgan: O.Sharafiddinov. – Toshkent: O‘zbekiston, 1989.
2. Yusupov, S. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. – Toshkent: Fan, 1980.
3. Quronov, M. “O‘zbek xalq eposi”. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2001